



TA'LIM JARAYONIDA LOYIHAVIY YONDASHUV: BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Saidova Nilufar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (BT) yo'nalishi 1-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15030410>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 10-Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 15-Mart 2025 yil

KEYWORDS

ta'lim tizimi, o'qituvchi, zamonaviy, kompetentli, kasbiy, yondashuv, faoliyat, kompetensiya, kompetentli pedagog.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida loyihaviy yondashuvning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik metodlar orasida loyihaviy yondashuv o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil metodlari qo'llanilib, loyihaviy ta'lim olgan va an'anaviy ta'lim olgan talabalar natijalari taqqoslangan.

Bugungi kunda kasbiy ta'lim sohasining mazmunini yangilash, rivojlantirish, takomillashtirish jarayonlari olib borilmoqda, buning natijasi ta'lim standartlarini modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini qo'llashga qaratilgan. Mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiyalashning bosh maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga to'la javob bera oladigan ta'limning yangi sifatiga erishish belgilangan.

Hozirgi kun o'qituvchisiga doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda ish olib borishga to'g'ri kelmoqda, bu o'z navbatida uning kasbiy sifatleri takomillashtirilishini talab qiladi. Pedagogik nazariya va metodikalarning doimiy rivojlanishi, pedagogik amaliyotga o'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularni joriy qilish hozirgi kun o'qituvchisining ta'lim texnologiyalari sohasida qo'shimcha tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda ta'limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta'lim tizimii modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o'quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab o'tilgan talablar yangi milliy ta'lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotiing mustahkamlanishiga olib keladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida loyihaviy yondashuv o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv o'qituvchilarga nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Maqolaning maqsadi – ta'lim jarayonida loyihaviy yondashuvning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish va uning samaradorligini asoslashdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADVIQOT METODOLOGIYASI

Loyihaviy ta'lim yondashuvi global ta'lim tizimida uzoq vaqtdan beri qo'llanilib kelinmoqda. Dewey va Kilpatrick kabi pedagoglar tomonidan ilgari surilgan bu konsepsiya talabalarining mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va amaliy bilimlarga asoslangan o'rganish jarayonini ta'minlashga qaratilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda loyihaviy yondashuvning ta'lim sifatiga ta'siri, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi roli va amaliy pedagogik usullar bilan uyg'unligi tahlil etilgan.

Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta'lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta'lim oluvchilarni dolzarb bilimlar bilan ta'minlash uchun o'z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o'zlashtirishi darajasining ortishiga imkon beradi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ta'lim oluvchilarning ham ta'lim olish faoliyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Bugungi kunda kompetentli yondashuvga tayanib, bu yondashuv nafaqat kasbiy faoliyat kompetensiyalarining shakllanishini, balki bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari yuzaga chiqarilishini ham ko'zda tutadi. Oliy ta'lim standartida bo'lajak mutaxassisga mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik, o'z kasbini erkin egallaganlik va faoliyatning turdosh yo'nalishlarida yo'nalishni topa olish imkoniyatlari haqida talablar qo'yiladi- bularning barchasini kompetentli yondashuv sharoitlaridagina yuzaga chiqarish mumkin.

"Kompetensiya" tushunchasining ta'riflaridan kelib chiqib (bu tushuncha esa o'z navbatida hamma tomonidan bir xilda talqin qilinavermaydi), ko'pchilik mualliflar uni mutaxassisning o'zi olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga tayyorligi, boshqalari esa muammolarni hal qila bilish qobiliyati tarzida ta'riflaydilar.

Lotinchadan tarjima qilinganda "kompetensiya" so'zi kishi biron-bir masala doirasida yaxshi xabardor ekanligini bildiradigan, tajribaga ega ekanligini ko'rsatadigan tushunchani ifodalaydi. Oliy ta'lim bo'yicha DTS ga muvofiq kompetensiya - bu ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilim, mahorat va shaxsiy sifatlarni qo'llash qobiliyatidir.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabani muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihalashtirishning umumlashgan algoritmi:

- g'oyani ilgari surish;
- muammoni ko'rsatish, maqsadni belgilash va uni hal etish vazifalarini ifodalash;
- natijaga erishishning qulay usul va vositalarini asosli tanlash;
- hamkorlikda ishlashni rejalashtirish va loyihadagi majburiyatlarni taqsimlash;
- natijalarni rasmiylashtirish; ularning umumiy taqdimotini o'tkazish;
- o'z-o'zini baholash va refleksiyaning amalga oshirish

O'quv loyihaviy faoliyat tuzilishi quyidagicha: loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatni rejalashtirish, loyihaviy vazifalarni hal etish, mahsulotni rasmiylashtirish, hisobot tuzish, natijalar taqdimotini tayyorlash, loyihaning ommaviy taqdimoti, himoyasi va bahosi, refleksiya, hisobot topshirish.

O'quv loyihalarni turlashtirish turli omillarga asoslangan holda amalga oshiriladi;

- loyihada yetakchi faoliyat bo'yicha ma'lum sohada tadqiqot, amaliy- yo'naltirilgan, axborotli loyiha;
- fan jihatdan mazmunli soha mono-loyiha (bir bilim sohasi doirasida), fanlararo loyiha ;
- loyihaning davomiyligiga qarab qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli loyiha; loyiha ishtirokchilarining soniga qarab yakka tartibda, kichik guruh bo'lib hamda jamoaviy;[1; 149-b]

O'quv loyihasi axborot, ma'lumot va tadqiqot maqsadlarida o'tkaziladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Loyihaga asoslangan ta'lim o'quvchilarga chuqur bilim, shuningdek, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik va muloqot kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. LAT, shuningdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida yuqumli ijodiy energiyani ochib berishi bilan mashhur bo'lib, bu talabalarning faolligini oshirishga va hamma uchun o'quv natijalarini yaxshilashga olib keldi.

Loyihaga asoslangan ta'lim maktablarda va boshqa ta'lim muassasalarida har xil usul va har xil darajada tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Loyihaga asoslangan ta'lim - bu o'quvchilarning murakkab savol, muammo yoki qiyinchiliklarni o'rganish orqali o'rganadigan o'quv usulidir. Bu faol o'rganishni rag'batlantiradi, talabalarni jalb qiladi va yuqori darajadagi fikrlashga imkon beradi. Talabalarga o'z loyihalarini yakunlash orqali real hayot muammolarini o'rganish va javob topish vazifasi yuklatilgan bo'ladi. Shuningdek, talabalar ishlayotgan loyihani, xususan, loyiha qanday yakunlanishini va yakuniy mahsulotni nazorat qilishlari mumkin.

Talabalar loyihaga asoslangan o'quv topshirig'ini bajarganlarida, maqsadlar boshidan belgilanadi va bunday o'qitish ancha tartibli bo'ladi. Loyihaga asoslangan ta'lim odatda ko'p tarmoqli bo'lib, u turli fanlar bo'yicha ko'nikma va bilimlardan foydalanadi.

Loyihaga asoslangan ta'lim to'liq bo'lishi uchun umumiy bosqichlarni bajaradi. Loyihaga asoslangan ta'lim hozirgi zamon sinfida munosib o'rin egallaydi va XXI asr ta'lim tizimini qo'llay oladi.

Loyihaga asoslangan ta'limdan ko'zlangan natija uzoq muddatli bo'lishi va maktab, o'qituvchi va muassasaga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, loyihaga asoslangan o'quv maqsadlari yuqorida tavsiflangan xususiyatlardan va uning afzalliklaridan farq qilmaydi. Shunday bo'lsa-da, quyida loyihalarga asoslangan ta'limning umumiy maqsadlari keltirilgan:

- Turli sohalardagi bilim va ko'nikmalarni yanada murakkab tadqiqotlar va ko'p tarmoqli loyihalar orqali birlashtirish
- Mustaqil o'rganish tartibsiz bo'lgan muammolarni mustaqil tadqiq qilish orqali rag'batlantiriladi
- Talabalarni ijtimoiy muhitga tayyorlashga yordam beradigan jamoaviy ish
- O'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tanqid qilish, bu o'quvchilarni o'z g'oyalari va bilimlarini bilishga undaydi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Nazariy bilimlarning amaliyotga integratsiyasi – loyihaviy yondashuvda ta'lim olgan bo'lajak o'qituvchilar dars jarayonlarida innovatsion yondashuvlarni ko'proq qo'llaydi.

2. Muammolarni hal qilish qobiliyatining rivojlanishi – talabalar loyihaviy faoliyat davomida real muammolar bilan ishlashga o‘rganadi, bu ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

3. Hamkorlik va kommunikativ ko‘nikmalar – loyihalar jamoaviy ish orqali amalga oshirilgani sababli, talabalar o‘zaro muloqot va jamoada ishlash malakalarini rivojlantiradi.

4. Kasbiy o‘shish va mustaqil ta‘limga moyillik – loyihaviy yondashuvda ta‘lim olgan talabalar o‘z kasbiy rivojlanishlariga ko‘proq e‘tibor qaratadi va mustaqil o‘rganishga moyilligi yuqori bo‘ladi.

Loyihaviy ta‘lim texnologiyasining dolzarbligi:

- loyihaviy ta‘lim quyidagi dolzarb ta‘lim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi;

- ta‘limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta‘minlaydi ;

- nazariy ma‘lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash va talabalarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi;

- kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta‘minlaydi.[5;134-150 b]

Ta‘lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llashning omillaridan biri bu muayyan, yaxlit ta‘limiy jarayonni oldindan loyihalash, talabalar tomonidan o‘zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko‘nikma va malakalar darajasini tashhislash hamda ta‘lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, loyihaviy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. U nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki amaliy faoliyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘qituvchilarning zamonaviy ta‘lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kompetentli yondashuv - bu hozirgi zamon kasbiy ta‘lim tizimini mehnat bozorining talab-ehhtiyojlari bilan bir qatorga qo‘yishga intilishdir. Mana shunday yondashuv o‘qituvchidan o‘quvchiga bilimlarning translyatsiya qilinishini emas, balki amaliy tajribalar, bilim, mahorat va ko‘nikmalar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradigan kasbiy kompetentlikni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Pedagog-xodimlar uchun eng muhim vazifa bo‘lib, kompetensiyalarni amaliy jihatdan egallash zarurati sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиалаштириш ва режалаштириш. - Т. 2010 й, 149-б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. - T. Davlat ilmiy nashriyoti, 2005-y. 592-b.
3. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. New York: Macmillan.
4. Kilpatrick, W. H. (1918). The Project Method. Teachers College Record, 19(4), 319–335.
5. Jones, R. (2020). Project-Based Learning in Teacher Education: A Modern Approach. Journal of Educational Research, 45(2), 134-150.

6. Smith, L. (2021). Innovative Teaching Strategies and Professional Development of Future Educators. *Educational Psychology Review*, 33(1), 89-102.
7. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Khusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 2.12 (2020): 132-136.
8. Болтаева, Зулфия Зарифовна, and Хусниддин Купайсинович Хомидов. "ЛИЧНОСТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ." VIII Лазаревские чтения "Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". 2018.
9. Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "COOPERATION BETWEEN STATE AND PUBLIC ORGANIZATIONS IN THE MEANINGFUL ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE ACTIVITIES." *Thematics Journal of Social Sciences* 7.3 (2021).
10. Kupaysinovich, Khomidov Khusniddin. "INTERPRETATION OF STUDENTS'PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).
11. Купайсинович, Хомидов Хусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 561.
12. Homidov, H. K. "TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO 'LLARI." *Экономика и социум* 5-1 (108) (2023): 83-87.
13. Qodirov, F. ., Qilichova, B., & Ziyotova, M. . (2024). NOAN'ANAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI O'RNI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, *In academy* 23(50).3(10), 28–33, 20241.
14. Omonovich, Uralov Eliboy, and Ergasheva Husniya Mirzahid. "Science Teaching Process for Primary Students." *International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London)*. Vol. 3. 2024
15. Ochilova, Go'zal Aralovna, va Zilola Yoqub qizi Mahmudova. "ILMIY TEXNIKA SALOHİYATI VA UNING TARKIBIY QISMLARI." *International Journal of Scientific Researchers*, jild 8, №2, 2024.
16. Toshpulatova, Guldon Tulqin qizi, va Qodirov, Farrux Ergashevich. "Boshlang'ich sinfdan 'Informatika va axborot texnologiyalari' fanini o'qitishda yuzaga kelayotgan bir qancha muammolar, kamchiliklar va ularni bartaraf qilish usullari." *International Journal of Scientific Researchers*, jild 8, №1
17. Obidova, Muqaddas Ro'ziqulovna. "Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari." *International Journal of Scientific Researchers*, vol. 9, no. 1, Dec. 2024, pp. 14-16.
18. Кодиров, Фаррух Эргаш угли, и Александра Валерьевна Шаркова. «Современные проблемы и перспективы преподавания информационных технологий студентам, обучающимся на курсе „Начальное образование“». *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, том 1, № 11, 18 октября 2024 года, стр. 45–51.

19. Shoyqulova, Dilbar Dilshod qizi. "Investitsiyalarni jalb qilish va uning samaradorligi." International Journal of Scientific Researchers, vol. 9, no. 1, 2024,
20. Xolmurodova, Adelinabonu Bahodir qizi. "Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati." Yangi O'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnal, vol.1,no.5,2024,<https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/723>.
21. Raimova, Dilfuza Abdinabiyevna. "TIL-ALOQA VOSITASI." Educational Research in Universal Sciences 2.16 (2023): 128-130.
22. R.D. Abdinabiyevna .International conference on modren science and scientific studies 1 (2), 124-129 Assirtiv pozitsiyani rivojlantirish jarayonining psixologik ,pedagpgik ,didaktik jihatlari
23. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
24. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.
25. Nozima, Asadova. "SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH." World scientific research journal 25.1 (2024): 179-186.
26. Ochilova, Fayyoza. "TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI." YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
27. Ochilova, Fayyoza Mansurovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 297-306.

INNOVATIVE
ACADEMY